

## Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026- yil yanvar-may oylari uchun

- I. Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Qashqadaryo viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026- yilning 1-iyun holatiga ko'ra viloyatda 3089 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 661 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,4 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 613 tasi (19,8 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 311 tasi (10,1 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga, 266 tasi (8,6 %) kiyim ishlab chiqarishga, 255 tasi (8,3 %) tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyatga, 192 tasi (6,2 %) mebel ishlab chiqarishga, 183 tasi (5,9 %) to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni  
1- iyun holatiga ko'ra



## II. Qashqadaryo viloyat sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026- yilning yanvar-may oylarida viloyatda korxonalar tomonidan 19 329,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,0 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>19 329,9</b>	<b>108,0</b>
Qarshi sh.	2274,3	112,3
Shahrisabz sh.	240,4	112,1
tumanlar:		
G'uzor	2250,9	105,7
Dehqonobod	498,1	109,9
Qamashi	466,7	109,2
Qarshi	1077,1	104,0
Koson	991,7	121,1
Kitob	872,5	108,8
Mirishkor	665,4	110,3
Muborak	447,8	107,5
Nishon	4877,7	98,7
Kasbi	1054,9	103,7
Ko'kdala	143,2	107,4
Chiroqchi	212,2	108,4
Shahrisabz	405,5	103,0
Yakkabog'	483,1	108,1

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)




## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumanida (27 884,7 ming so'm), G'uzor tumanida (9 678,4 ming so'm), Qarshi shahrida (7 415,2 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5 190,1 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, Koson tumanida (118,4 %), Qarshi shahrida (110,3 %), Shahrisabz shahrida (110,2 %), Mirishkor tumanida (108,2 %), Dehqonobod tumani (107,6 %), Kitob va Qamashi tumanlarida (106,7 %), Yakkabog' tumanida (106,1 %), Chiroqchi tumanida (105,9 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

### Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yanvar-may oylarida



### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026- yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 16 047,1 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,0 %) ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 716,3 mlrd. so'm (3,7 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 2 428,9 mlrd. so'm (12,6 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 137,6 mlrd. so'm (0,7 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi

2026- yilning yanvar-may oylarida

### III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026- yilning yanvar-may oylarida viloyatda 10,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2025- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 27,3 % ga kamaygan), 22,8 ming tonna ip kalava (3,7 % ga kamaygan), 445,2 ming litr aroq mahsulotlari (27,5 % ga kamaygan) hamda 86,4 ming tonna kaliy xlorid (1,9 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-may*	2025- yil yanvar-may*	2026- yil yanvar-may*
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	15,3	14,9	10,8
ip kalava, ming tonna	28,3	21,3	22,8
Aroq, ming litr	691,3	614,4	445,2
Kaliy xlorid, ming t.	84,3	84,9	86,4
Dizel yoqilg'isi, ming t.	126,9	178,1	110,7
Poliyetilen, ming t.	60,1	60,2	56,4
Neft, ming t	4,7	4,0	3,0
Tabiiy gaz, mln kub.m.	77,9	181,0	174,9
Gaz kondensati, ming t.	45,9	47,7	50,1
Portlandsement, ming t.	735,1	655,7	751,8

*\*2025-2026- yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


**. Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**  
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

### Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,4 % (2025- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,6 % (2025- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 124,6 %)ni tashkil etdi

### Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 % ni (2025- yilning yanvar-may oylarida 0,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali –15,1 % (22,2 %), o'rta-quyi texnologiyali –25,5 % (39,1 %), quyi texnologiyali 39,6 % (38,0 %)ni tashkil etgan



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026- yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 63,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 30,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-may*	2025- yil yanvar-may*	2026- yil yanvar-may*
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	3 123,8	4 105,8	2 617,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 596,7	1 387,5	428,2

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 43,3 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 90,1 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-may*	2025- yil yanvar-may*	2026- yil yanvar-may*
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	58 831,9	63 776,4	91 406,3
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	5 008,1	5 550,3	10 549,9

\*2025-2026- yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

### IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 080,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,3 % ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-may oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 32,8 % ni tashkil etgan.





## V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

### Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

### Metama'lumot uchun havola:

<https://www.qashstat.uz/uz/>

---

#### Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika  
statistikasi bo'limi

#### Manzil:

180100, Qashqadaryo viloyati,  
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy  
75 221-32-36 (7010)